



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19,1** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,5** mingtaga kamaygan yoki **7,2 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,8** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-dekabrida **4 812** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **26,5 %** ga ko‘p demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



2020-2025-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo‘yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.

2024-y.

2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat

yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 101** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 812** tani tashkil etdi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Termiz shahrida **3 409** tani yoki jamiga nisbatan **17,8 %** ni tashkil etdi.

20 589	Surxondaryo viloyati	19 101
3 753	Termiz sh	3 409
2 467	Denov	2 326
1 627	Jarqo‘rg‘on	1 491
1 290	Termiz	1 405
1 472	Sherobod	1 380
1 331	Sho‘rchi	1 299
1 242	Qumqo‘rg‘on	1 221
1 047	Angor	1 070
1169	Sariosiyo	999
1 121	Uzun	901
819	Oltinsoy	839
904	Qiziriq	777
916	Muzrabot	773
903	Boysun	769
528	Bandixon	442

27 368

2023-y.

1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

20 589

19 101

2024-y.

2025-y.

21 563

2021-y.

24 395



2022-y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1-yanvar holatiga, birlikda

Termiz	19,9
Termiz sh.	16,7
Sherobod	9,4
Boysun	9,2
Bandixon	8,9
Angor	8,9
Oltinsoy	8,9
Muzrabot	7,6
Jarqo'rg'on	7,6
Denov	7,5
Sho'rchi	7,4
Qiziriq	7,1
Uzun	7,0
Sariosiyo	7,0
Qumqo'rg'on	6,9



2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **8,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,7** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,9** birlik, Termiz shahrida **16,7** birlik, Sherobod tumanida **9,4** birlik, Boysun tumanida **9,2** birlik va Bandixon tumanida **8,9** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 19,9 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Muzrabot tumani
- 7,6 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Qumqo'rg'on tumani
- 6,9 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,9** birlik, Termiz shahrida **16,7** birlik, Sherobod tumanida **9,4** birlik, Boysun tumanida **9,2** birlik, Bandixon tumanida **8,9** birlik, Angor tumanida **8,9** birlik, Oltinsoy tumanida **8,9** birlik, Muzrabot tumanida **7,6** birlik va Jarqo'rg'on tumanida **7,6** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025-yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Bandixon tumani

8,9

Sherobod tumani

9,4

Termiz tumani

16,7

Boysun tumani

19,9

Termiz shahri


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda 2023-y.

2024-y.

189	Angor	242
104	Bandixon	109
135	Boysun	144
425	Denov	531
293	Jarqo‘rg‘on	477
168	Muzrabot	168
249	Oltinsoy	264
242	Qiziriq	267
195	Qumqo‘rg‘on	261
212	Sariosiyo	223
337	Sherobod	281
241	Sho‘rchi	365
166	Termiz	422
698	Termiz sh.	909
150	Uzun	149

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Termiz shahri - **18,9** %, Denov tumani - **11,0** %, Jarqo‘rg‘on tumani - **9,9** %, Termiz tumani - **8,8** %, Sho‘rchi tumani - **7,6** %, Sherobod tumani - **5,8** % va Qiziriq tumani - **5,6** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 906** ta, sanoatda **1 033** ta Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **615** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida **909** ta, Denov tumanida **531** ta va Jarqo‘rg‘on tumanida **477** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **25 291** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **8 935** (yoki **35,3 %**) ta, sanoat sohasida - **5 252** (yoki **20,8 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **5 137** (yoki **20,3 %**) ta, xizmat sohasida - **4 445** (yoki **17,6 %**) ta va qurilish sohasida – **1 522** (yoki **6,0 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **77,8** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,4** punktga ko‘paygan. Ko‘payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘silgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **98,2** % ni, yo‘lovchi tashishda **97,4** % ni, chakana savdoda **96,8** % ni, yuk aylanmasida **96,4** % ni, qishloq xo‘jaligida **94,2** % ni va qurlilishda **90,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi*, mlrd. so‘m

Termiz sh.	1 241,3
Denov	811,5
Sho‘rchi	780,4
Sherobod	747,7
Bandixon	597,7
Muzrabot	592,6
Jarqo‘rg‘on	465,3
Termiz	424,4
Angor	395,4
Oltinsoy	350,9
Uzun	293,9
Sariosiyo	263,0
Qumqo‘rg‘on	260,2
Boysun	211,7
Qiziriq	117,1

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 652,2** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**1 241,3** mlrd. so‘m), Denov tumani (**811,5** mlrd. so‘m), Sho‘rchi (**780,4** mlrd. so‘m), Sherobod (**747,7** mlrd. so‘m) va Bandixon (**597,7** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Qiziriq tumanida (**117,1** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




*hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida yashirin iqtisodiyotni hajmi hisobga olinmagan holda shakllantirilgan

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiylajidagi ulushi, % da

*2024-yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajidagi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **64,8 %** ni tashkil etdi.*



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Muzrabot tumani (**98,2 %**), Oltinsoy tumani (**98,0 %**), Boysun tumani (**91,6 %**), Termiz tumani (**79,5 %**), Sherobod tumani (**75,0 %**), Sho‘rchi tumani (**73,8 %**), Uzun tumani (**71,2 %**), Termiz shahri (**66,5 %**), Angor tumani (**61,7 %**) va Denov tumani (**56,6 %**) tashkil etdi.

Bandixon	 100,0
Muzrabot	 98,2
Oltinsoy	 98,0
Boysun	 91,6
Termiz	 79,5
Sherobod	 75,0
Sho‘rchi	 73,8
Uzun	 71,2
Termiz sh.	 66,5
Angor	 61,7
Denov	 56,6
Jarqo‘rg‘on	 34,0
Qumqo‘rg‘on	 28,7
Qiziriq	 28,0
Sariosiyo	 28,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi* va ulushi

Termiz sh.	2505,8	96,5
Denov	714,5	94,7
Termiz	568,7	93,1
Boysun	517,6	94,6
Sariosiyo	475,4	57,4
Jarqo'rg'on	425,2	90,9
Sherobod	366,5	93,0
Qumqo'rg'on	294,9	89,1
Angor	291,8	91,5
Qiziriq	290,0	93,1
Sho'rchi	232,9	97,9
Muzrabot	220,4	80,6
Oltinsoy	171,0	94,2
Uzun	148,8	73,7
Bandixon	124,8	82,0

hajmi, mld. so'mda

ulushi, % da

*hududlarda bajarilgan qurilish ishlari hajmida yashirin iqtisodiyotni hajmi hisobga olinmagan holda shakllantirilgan

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **10 916,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiyligi hajmining **90,5** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**2505,8** mld. so'm), Denov (**714,5** mld. so'm), Termiz (**568,7** mld. so'm), Boysun (**517,6** mld. so'm), Sariosiyo (**475,4** mld. so'm), Jarqo'rg'on (**425,2** mld. so'm) va Qumqo'rg'on (**294,9** mld. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 946,8** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **45,5 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **62,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Denov (**734,5** mlrd. so‘m), Termiz shahri (**681,6** mlrd. so‘m), Oltinsoy (**617,4** mlrd. so‘m), Sherobod (**610,7** mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**473,0** mlrd. so‘m) Jarqo‘rg‘on (**454,9** mlrd. so‘m), Muzrabot (**451,0** mlrd. so‘m) va Sho‘rchi (**436,5** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **34 533,6** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **94,2** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilga nisbatan **104,0** % ni tashkil qildi.

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**5604,1** mld. so‘m), Sherobod (**3978,8** mld. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**3567,8** mld. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**3253,6** mld. so‘m), Muzrabot (**2589,5** mld. so‘m) va Sariosiyo (**2376,5** mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

	Termiz sh.	63,6
Qiziriq	1064,6	67,6
Bandixon	1095,5	99,7
Angor	1509,6	69,1
Boysun	1702,2	97,3
Termiz	1733,8	91,8
Oltinsoy	1777,3	99,5
Uzun	1986,3	99,6
Sho‘rchi	2186,2	99,7
Sariosiyo	2376,5	97,7
Muzrabot	2589,5	98,4
Jarqo‘rg‘on	3253,6	96,3
Qumqo‘rg‘on	3567,8	94,7
Sherobod	3978,8	97,7
Denov	5604,1	97,8


↑ hajmi, mld. so‘mda
↑ ulushi, % da

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **24 079,3** mld. so‘mni yoki umumiylay chakana savdo tovar aylanmasining **96,8 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **108,9 %** ni tashkil qildi.


2024-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi* va ulushi

Bandixon	329,8	98,9
Termiz	450,0	97,8
Sariosiyo	903,6	99,0
Oltinsoy	952,3	98,9
Boysun	961,2	99,4
Qiziriq	1 009,1	99,5
Qumqo‘rg‘on	1 012,7	98,8
Muzrabot	1 025,5	99,2
Uzun	1 034,9	99,0
Angor	1 120,1	99,3
Jarqo‘rg‘on	1 275,0	97,6
Sherobod	1 422,9	97,6
Sho‘rchi	2 419,8	98,1
Termiz sh.	4 176,3	94,0
Denov	5 297,1	95,4

hajmi, mld. so‘mda ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**5 297,1** mld. so‘m), Termiz sh. (**4 176,3** mld. so‘m), Sho‘rchi (**2 419,8** mld. so‘m), Sherobod (**1 422,9** mld. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**1 275,0** mld. so‘m), Angor (**1 120,1** mld. so‘m) va Uzun (**1 034,9** mld. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


2020 va 2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mld. so‘m




*hududlarda chakana savdo tovar aylanmasi hajmida yashirin iqtisodiyotni hajmi hisobga olinmagan holda shakllantirilgan

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi*, mlrd. so‘mda



2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **21 604,3** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **75,8 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**2650,8** mlrd. so‘m), Denov (**1476,2** mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**823,9** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**790,0** mlrd. so‘m), Sariosiyo (**768,4** mlrd. so‘m), Sherobod (**761,4** mlrd. so‘m) va Sho‘rchi (**735,1** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

*hududlarda xizmat ko‘rsatish hajmida yashirin iqtisodiyotni hajmi hisobga olinmagan holda shakllantirilgan

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)**

6355,5	Savdo xizmatlari	34,9
2807,4	Transport xizmatlari	14,9
680,0	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,6
581,7	Shaxsiy xizmatlar	3,1
456,8	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	2,4
402,8	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	2,1
355,5	Ijara xizmatlari	1,9
461,0	Boshqa xizmatlar	2,5
281,9	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,5
142,0	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,8
102,5	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	0,5
142,2	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,7
9,4	Moliyaviy xizmatlar	0,05

Hajmi, mlrd. so‘mda



Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida - **34,9 %** (**6 355,5** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida - **14,9 %** (**2 807,4** mlrd. so‘m), yashash va ovqatlanish xizmatlarida - **3,6 %** (**680,0** mlrd. so‘m) va shaxsiy xizmatlarda - **3,1 %** (**581,7** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda - **0,05 %** (**9,4** mlrd. so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Angor	22949,0	99,8
Denov	22503,2	66,1
Jarqo‘rg‘on	21754,8	100,0
Qumqo‘rg‘on	19497,0	91,5
Qiziriq	17700,4	86,0
Sherobod	17542,0	92,0
Sho‘rchi	15772,6	86,4
Termiz sh.	15262,8	83,0
Termiz	14098,0	69,7
Muzrabot	13805,3	100,0
Sariosiyo	10258,7	100,0
Uzun	9721,9	63,3
Bandixon	9562,3	100,0
Boysun	9044,4	100,0
Oltinsoy	7118,8	100,0

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **233 226,5** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **86,5** % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2020-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **133 525,7** ming AQSH dollarini yoki jami importning **91,1 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida – **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida – **100,0 %**, Bandixon tumanida – **100,0 %**, Muzrabot tumanida – **100,0 %**, Boysun tumanida – **100,0 %**, Angor tumanida – **100,0 %**, Sherobod tumanida – **100 %** va Oltinsoy tumanida – **100,0 %** ni tashkil etdi.

Qiziriq	100,0
Qumqo'rg'on	100,0
Bandixon	100,0
Muzrabot	100,0
Boysun	100,0
Angor	100,0
Sherobod	100,0
Oltinsoy	100,0
Sho'rchi	99,9
Uzun	97,9
Denov	97,5
Termiz sh.	95,6
Termiz	94,3
Jarqo'rg'on	89,3
Sariosiyo	26,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

91,3 %

Yuk
tashishda

96,4 %

Yuk
aylanmasida

97,4 %

Yo'lovchi
tashishda

98,2 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil qildi.


2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,3 %** ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,2 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil **IV** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 033** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **303** (**29,4** %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **645** (**62,4** %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **85** (**8,2** %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - **42,6** % (**440** ta), xizmatlar sohasida - **30,1** % (**311** ta), sanoatda – **11,7** % (**121** ta), qurilishda – **10,0** % (**103** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - **5,6** % (**58** ta) ni tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

731,1	Termiz shahar	19,3
115,9	Angor	3,1
39,8	Bandixon	1,1
25,5	Boysun	0,7
713,3	Denov	18,9
202,0	Jarqo'rg'on	5,3
334,9	Qiziriq	8,9
196,7	Qumqo'rg'on	5,2
165,7	Oltinsoy	4,4
107,6	Muzrabot	2,8
234,8	Sariosiyo	6,2
556,6	Termiz	14,7
119,7	Uzun	3,2
88,4	Sherobod	2,3
146,8	Sho'rchi	3,9


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (**180** ta), Denov (**123** ta), Jarqo'rg'on (**83** ta), Sariosiyo (**77** ta), Sherobod (**72** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020-yilning IV choragida **198** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragiga kelib esa **303** taga yoki 2020-yilning IV choragiga nisbatan **105** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020-yilda **568** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-dekabrida **645** ta yoki **77** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa, 2020-yilda **73** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **85** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan **12** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yatashilanish

o'zgarishsiz

yomonlashish

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilanish deb baholagan korxonalarining soni 2020-yilning **IV** choragida **544** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **IV** choragiiga kelib esa, **436** taga yoki 2020-yilga nisbatan **108** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2020-yilning **IV** choragida **251** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **IV** choragida **463** ta yoki **212** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2020-yilning **IV** choragida **44** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning **IV** choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **29** tani tashkil etib **15** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020-yilning **IV** choragida **23,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **29,4** % ga yetgan yoki 2020-yilga nisbatan **5,9** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020-yilda **67,5** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **IV** choragida **62,4** % yoki **5,1** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020-yilda **9,0** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, bu ko‘rsatkich **8,2** % ga yetgan yoki **0,8** % ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020-yilning **IV** choragida **64,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **42,2** % ga yetgan yoki 2020-yilning **IV** choragiga nisbatan **22,4** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2020-yilning **IV** choragida **29,8** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **IV** choragida **44,8** % yoki **15,0** % oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2020-yilning **IV** choragida **5,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning **IV** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **13,0** % yoki **7,4** % oshgan.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Jami – 63,2

Jami – 27,2

Jami – 9,6



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning **IV** choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **35,9** % ni, xizmatlar sohasida – **31,8** % ni va savdoda – **29,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **71,1** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **69,0** % va savdoda – **64,8** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **10,7** % ni, xizmat sohasida – **10,6** % ni va sanoat sohasida – **7,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **70,9** % ni, savdoda – **59,1** % ni va sanoatda – **57,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatda – **42,5** % ni, savdo sohasida – **40,2** % ni va sanoat sohasida - **38,8** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,9** % ni, sanoat sohasida – **4,1** % ni, qurilish sohasida – **2,9** % ni va xizmat sohasida – **1,6** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,8	46,3	13,9
Band bo'lganlar soni	32,5	55,7	11,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,0	47,6	12,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	37,7	49,9	12,4
Raqobat muhiti	47,8	40,7	11,5
Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli			
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
	57,3	40,4	2,3
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,9	54,2	1,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	53,5	44,5	2,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	52,5	44,9	2,6
Raqobat muhiti	56,3	41,1	2,6

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Ishbilarmonalik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68